

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

MUHANDISLIK QURILISH INFRASTRUKTURASI FAKULTETI

“Geodeziya va kadastr” kafedrası

“Himoyaga ruxsat etildi”
MQIF dekani
dots. S.A. Tashpo‘latov

“_____” _____ 2014 y.

5311500 – “Geodeziya, kartografiya va kadastr” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr
darajasini olish uchun bajarilgan diplom loyihasi

TUSHUNTIRISH XATI

Diplom loyihasining mavzusi: *“Toshkent shahar Sputnik-7 mavzesida joylashgan
“SHIRINLIK” mas‘uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli binolar kadastrini
tuzish va baholash”.*

Tushuntirish xati ____ - bet

Loyiha muallifi 3-10 GKK

Ibragimova Muxlisa Ulug‘bek qizi _____

Rahbari: **dotsent Nazarov B.R.** _____

Maslahatchi: **Azizov M.M.** _____

“O‘zDAVERLOYIHA” ilmiy

loyiha instituti bo‘lim

boshlig‘i

“GvaK” kafedrası “_____” _____ 2014 y. №__ bayonnomasi

bilan “himoyaga tavsiya etilgan”

kaf. mudiri _____ B. Nazarov

Toshkent 2014 y.

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI
MUXANDISLIK QURILISH INFRASTRUKTURASI FAKUL'BTETI

“Geodeziya va kadastr” kafedrası

Yo‘nalish: 5311500- “Geodeziya, kartografiya va kadastr”

“TASDIQLAYMAN”
kafedra mudiri _____
“__” _____ 20__ yil.

DIPLOM LOYIHASI BO‘YICHA TOPSHIRIQ

Talaba **Ibragimova Muxlisa Ulug‘bek qizi**

1. Diplom loyihasi: ***“Toshkent shahar Sputnik-7 mavzesida joylashgan “SHIRINLIK” mas‘uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli binolar kadastrini tuzish va baholash”***.

Rektorning 10.12.2013 yil. 2/335 sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

2. Diplom loyihasini old himoyaga taqdim etish muddati: 25.06.2014y.

3. Mavzu bo‘yicha dastlabki ma‘lumotlar beruvchi adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Davlat kadastr asoslari” A.R. Bobojonov, H.A. Ishmuxamedova, O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2009y.

2. “Davlat kadastrlari to‘g‘risida” gi qonun, Toshkent, O‘zbekiston, 2000y.

2. “Davlat kadastr asoslari” Nishonboev N. Tashkent. TAQI. 2007y.

3. “Ko‘chmas mulkni baholash asoslari” To‘ychiev N.J., Mirxoshimov A.M., Plaxtiy K.A. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Adolat, 2000y.

4. “Er kadastr” (darslik) Babajanov A.R., Raxmanov K.R., Gofirov A. Toshkent 2008y.

4. Diplom loyihasining maqsadi va hal qilinadigan masalalar:

Diplom loyihasining maqsadi “Toshkent shahar Sputnik-7 mavzesida joylashgan **“SHIRINLIK”** mas’uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli binolar kadastrini tuzish va baholash” dan iborat. Kadastr haqida umumiy ma’lumotlarni to‘plash, ko‘chmas mulk ob’ektlarini baholash, ob’ektning inventar narxlash hisobotini tuzish va hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muxofazasi to‘g‘risida ma’lumotlar berish.

5. Grafik qism materiallar ro‘yxati:

1. Er uchastkasi joylashgan xudud tafsiloti
2. Er uchastkasi chegaralarini shakl-tasviri
3. Ob’ekt joylashgan xududning bosh rejasi
4. Binoning tarxi (slayd).

6. Maslahatchilar:

Bo‘limlar	Maslahatchi F.I.SH.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qilindi
I-bob. O‘zbekiston respublikasida er uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi	Azizov M.M.		
II-bob. “SHIRINLIK” mas’uliyati cheklangan jamiyatining kadastrini tuzish	Nazarov B.R.		
Bino va inshootlar pasportini tuzish	Nazarov B.R.		
III-bob. Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muxofazasi	Xabibullaev SH.		

7. Bitiruv ishini bajarish rejasi

№	Bosqichlar nomi	Bajarish muddati	Bajarilganlik belgisi (rahbar imzosi)
	<i>Kirish</i>		
<i>I-bob.</i>	<i>O‘zbekiston respublikasida er uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi</i>		
<i>II-bob.</i>	<i>“SHIRINLIK” mas’uliyati cheklangan jamiyatining kadastrini tuzish</i>		
	<i>Ob’ektga qarashli bino va inshootlar pasportini tuzish</i>		
	<i>Inventar narxlash xisobotini tuzish.</i>		
<i>III -bob.</i>	<i>Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muxofazasi</i>		
	<i>Xulosa</i>		
	<i>Diplom loyihasining matn va grafik qismini rasmiylashtirish</i>		
	<i>Diplom loyihasi taqdimotini tayyorlash</i>		

Diplom loyihasi rahbari: dotsent Nazarov B.R. _____

Topshiriqni bajarishga oldim _____

talaba imzosi

“ ”

_____ 2013 yil

MUNDARIJA
KIRISH

**I-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ER UCHASTKALARIGA
BO‘LGAN HUQUQLARNI DAVLAT RO‘YXATIDAN
O‘TKAZISH**

1.1.	Umumiy qoidalar.....	
1.2.	Ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan er uchastkalariga bo‘lgan huquqlar	
1.3.	Er uchastkasiga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi.....	
1.4.	Bino va inshootlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimi.....	

**II-BOB. "SHIRINLIK" MAS‘ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI
KADASTRINI TUZISH**

2.1.	Ko‘chmas mulk ob‘ektiga kadastr ishi.....	
2.2.	Er uchastkasi chegaralarini shakl-tasviri.....	
2.3.	Er uchastkasi chegaralarini aniqlash va kelishish dalolatnomasi.....	
2.4.	Er uchastkasi burilish nuqtalari va chegaralarining ta‘rifi.....	
2.5.	Er uchastkasi joylashgan xudud tafsiloti.....	
2.6.	Davlat ro‘yxatdan o‘tkazish uchun taqdim qilingan xujjatlar ro‘yxati.....	
2.7.	Davlat mulki bo‘lgan er uchastkasiga ___-sonli ijara shartnoma namunasi.....	
2.8.	Inventar narxlash hisoboti.....	

4-BOB. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA MEHNAT MUXOFAZASI

4.1.	Hayot faoliyati xavfsizligining mazmuni va maqsadi.....	
4.2.	Fuqaro muxofazasi asoslari.....	
4.3.	Mehnat muxofazasi.....	
	Xulosa	
	Foydalanilgan adabiyotlar	
	Ilovalar	

KIRISH

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa yo‘nalishlardagi muammolarni hal qilish yo‘lida dadil qadam qo‘yilmokda. SHu jumladan barcha sohalar kabi geodeziya, kartografiya, kadastr sohalari ham rivojlanmoqda. Hozirda olib borilayotgan ilmiy va amaliy ishlarni yanada mukammallashtirish maqsadida soxaga doir yangi texnika va texnologiyani xayotga tatbik qilishga katta ahamiyat berilmokda.

So‘ngi vaqtlarda kadastr tuzishga ham alohida e‘tibor berilmoqda. CHunonchi, sohani rivojlantirish maqsadida kadrlar tayyorlash, rivojlangan IIIvetsiya, Rossiya, Germaniya mamlakatlarning kadastr tuzish borasidagi tajribalarini o‘rganish va yangi, zamonaviy texnologiya yaratish ustida ish olib borilmoqda.

Avvalam bor, shuni ta’kidlash joizki, kadastrning barcha turlarini bajarish uchun Davlat Geodeziya tarmoqlari (DGT) barcha talablarga javob beradigan darajada barpo etilgan bo‘lishi kerak. Bu borada Respublikamizda ilmiy va amaliy ishlar olib borilmoqda.

CHunonchi, O‘zbekiston Respublikasi hududida Davlat Geodezik tarmog‘ini, Er yo‘ldoshi tizimi texnologiyasi bo‘yicha takomillashtirish masalasiga ko‘p miqdorda mablag‘ ajratib, bu ishning rivojiga katta ahamiyat berilmoqda.

Gap shundaki, barcha erlar, kuchmas mulk chegaralari, burchaklari DGT asosida joyda topiladi va belgilanadi.

Er va boshqa turdagi ko‘chmas mulklarni ro‘yxatga olish, ular haqida aniq ma’lumotlarni to‘plash, ularni bir joyga ma’lumotlar bankiga (MB) yig‘ib, kerak bo‘lganda ulardan samarali foydalanish, er ko‘chmas mulk egasi bo‘lishi davlatning, jismoniy shaxsning erga, ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqini himoya qilish soliq tizimini mukammallashtirish, ko‘chmas mulk haqidagi ma’lumotlarni ommaviy axborat vositalarida e’lon qilish, ularni kim oshdi bozorida sotish va sotib olish kabi juda ko‘p masalalarni echish maqsadida er kadastrini tuzildi.

Undan tashqari, ko'chmas mulkka yoki uning ma'lum bir qismiga egalik huquqini rasmiylashtirish, bu huquqni muhofaza qilish maqsadida ko'chmas mulk kadastr tuziladi.

Kundan kunga bozor munosabatlari rivojlanayotgan bir paytda, ko'pdan - ko'p bozor iqtisodiyotiga oid masalalarni tez va samarali qilib hal qilish kadastr tuzuvchilardan chuqur bilim va mahorat talab qiladi.

Davlat er kadastr muxim xalk xujaligi axamiyatiga ega. Uning ma'lumotlaridan turli masalalarni xal kilishda, jumladan, er soligi, er maydonlariga ijara xaki mikdorlarini belgilashda, kishlok xujalik ekinlari xosildorligini rejalashtirishda, er tuzishda, erdan foydlanish bilan boglik bulgan barcha masalalarni xal kilishda foydalaniladi

Ushbu malakaviy bitiruv ishi **“Toshkent shahar Sputnik-7 mavzesida joylashgan *“SHIRINLIK”* mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli binolar kadastrini tuzish va baholash”** ga bag'ishlangan bo'lib unda O'zbekiston Respublikasida Er uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi, ob'ektni kadastr ishini yuritish va ob'ektdagi bino va inshootlarningt pasportini tuzish kabi maslalarni yoritish ko'zda tutilgan.

***I-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ER UCHASTKALARIGA
BO‘LGAN HUQUQLARNI DAVLAT RO‘YXATIDAN
O‘TKAZISH
1.1. UMUMIY QOIDALAR***

O‘zbekiston respublikasida er uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasining Er kodeksiga, "Davlat er kadastrini to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 31 dekabrda 543-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida er kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq ishlab chiqiladi.

O‘zbekiston respublikasida er uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi er uchastkalariga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi er resurslari bo‘yicha tuman xizmatlari hamda tumanlar va shaharlar ko‘chmas mulk kadastrini xizmatlari (keyingi o‘rinlarda - ro‘yxatga oluvchi organlar) uchun mo‘ljallangan.

Er uchastkalariga nisbatan mulkchilik, egalik qilish, undan foydalanish va ijaraga berish huquqiga doir hujjatlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish (keyingi o‘rinlarda - ro‘yxatdan o‘tkazish) va rasmiylashtirish yuridik va jismoniy shaxslarning mulkiy huquqlarini himoya qilish, shuningdek, er resurslarini asosli tarzda va samarali hisobga olish, er uchastkalariga doir operatsiyalarni amalga oshirish, soliqqa tortish va boshqa maqsadlar uchun amalga oshiriladi.

O‘zbekiston respublikasida er uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi sanab o‘tilgan er uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatdan o‘tkazish rasmiy, majburiy harakat bo‘lib, uning asosida yuridik va jismoniy shaxslarning er uchastkalariga bo‘lgan huquqlari belgilanadi va ro‘yxatga olingan paytdan boshlab e‘tirof etiladi.

Er uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni ro‘yxatdan o‘tkazish majburiydir, agar O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida boshqa narsa ko‘zda tutilmagan bo‘lsa.

Yuridik va jismoniy shaxslarning er uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini ro‘yxatdan o‘tkazish ularning tashabbusiga ko‘ra, shuningdek, er uchastkalarini kadastr suratga olishga doir rejali ishlar jarayonida amalga oshiriladi.

Er uchastkalariga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazmasdan turib amalga oshirilgan operatsiyalar haqiqiy deb hisoblanmaydi, qonunda ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

Er uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish hujjatlar bilan tasdiqlangan er uchastkalariga bo'lgan huquqlar to'g'risidagi axborotlarni tuman, shahar er uchastkalariga doir huquqlar Davlat registriga kiritish orqali amalga oshiriladi.

Er uchastkalariga bo'lgan huquqlardan foydalanadigan, shunday huquqlari paydo bo'ladigan, o'zgaradigan yoki to'xtatiladigan barcha yuridik va jismoniy shaxslar ro'yxatga olish sub'ektlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan er uchastkalariga bo'lgan huquqni tegishlicha tasdiqlaydigan, beradigan, o'zgartiradigan, cheklaydigan yoki to'xtatadigan yuridik hujjatlar ro'yxatga olish ob'ekti hisoblanadi.

Er uchastkalariga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish ular joylashgan tegishli hududiy ro'yxat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Er uchastkalariga bo'lgan huquqni ro'yxatdan o'tkazish tadbiri yuridik yoki jismoniy shaxsning ro'yxat organiga yozma ariza va huquqni belgilovchi hujjat hamda ushbu yo'riqnomaga binoan boshqa zarur hujjatlar bilan murojaat qilishidan boshlanadi.

Ro'yxatga olish yuzasidan ishlarni yuritish davlat tilida amalga oshiriladi. Hujjatlarning matnlari, agar arizachi davlat tilini bilmasa, tarjima qilinishi lozim.

1.2. RO‘YXATDAN O‘TKAZILISHI LOZIM BO‘LGAN ER

UCHASTKALARIGA BO‘LGAN HUQUQLAR

Huquqning vujudga kelishi - muayyan er uchastkasiga yuridik yoki jismoniy shaxsning huquqlarini dastlabki tarzda belgilash operatsiyasi:

- umrbod merosga egalik huquqi;
- doimiy egalik huquqi;
- doimiy va muddatli foydalanish huquqi;
- mulkchilik huquqi;
- ijara huquqi.

Huquqni o‘zgartirish - er uchastkalarining chegaralaridan foydalanish huquqining faqat turi yoki xarakterini o‘zgartirish operatsiyasi:

- foydalanish maqsadini;
- umumiy maydonni;
- er toifalarini;
- maydonlar tarkibini;
- baholash ko‘rsatkichlarini;
- huquq turlarini;
- mulk ulushlarining nisbatini o‘zgartirish.

Huquqning o‘tkazilishi - er uchastkalariga bo‘lgan huquqni bir yuridik yoki jismoniy shaxsdan boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsga o‘tkazish operatsiyasi:

- er uchastkasini oldi-sotdi qilish, almashtirish, hadya qilish, merosga qoldirish, ijaraga berish (renta);

- binolar va inshootlarni oldi-sotdi qilish, almashtirish, hadya qilish, merosga qoldirish, ijaraga berish, uy-joyini umrbod saqlash sharti bilan begonalashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Er kodeksining 29-moddasiga ko‘ra huquqlarni mushkullashtirish va cheklash quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- sotish yoki boshqacha tarzda begonalashtirishni taqiqlash;
- subijara va yordamchi pudratni taqiqlash, Er kodeksining 51-moddasi o‘ninchi qismida ko‘zda tutilgan hollarda - ijaraga berishni taqiqlash;
- er uchastkasining asosiy maqsadli ahamiyatini o‘zgartirishni taqiqlash;
- faoliyatning ayrim turlarini taqiqlash;
- ko‘chmas mulkning tashqi ko‘rinishini belgilangan tartibda roziliksiz o‘zgartirishni, binolar, imoratlar, inshootlarni ta‘mirlash yoki buzib tashlashni taqiqlash;
- er unumdorligini saqlab qolish va oshirish, irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini soz holatda saqlab turish tadbirlarini amalga oshirish sharti;
- belgilangan muddatlar davomida er uchastkasini qurishni boshlash, bitirish yoki o‘zlashtirish sharti;
- tabiatni muhofaza qilish talablariga rioya etish yoki muayyan ishlarni bajarish, shu jumladan, tuproq qatlamini, noyob o‘simliklarni, er uchastkasida mavjud bo‘lgan davlatning tabiat yodgorliklarini, tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlab qolish sharti;
- qonun hujjatlarida belgilab berilgan boshqa majburiyatlar, cheklashlar yoki shartlar.

Servitutlar:

- shartnoma bo‘yicha;
- sud qarori bo‘yicha.

Huquqni to'xtatish - yuridik yoki jismoniy shaxsning er uchastkasiga bo'lgan huquqlarini quyidagi hollarda bekor qilish operatsiyasi:

- ixtiyoriy voz kechganda;
- er uchastkasini egalik qilish, undan foydalanish yoki ijaraga berish muddati o'tganda;
- yuridik yoki jismoniy shaxsning faoliyati to'xtaganda;
- ijara shartnomasi bekor qilinganda;
- erga doir qonunlarni buzgan holda foydalanilayotgan er uchastkasi olib qo'yilganda;
- er uchastkasi davlat yoki jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilganda (sotib olinganda).

1.3. ER UCHASTKASIGA BO'LGAN HUQUQLARNI DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZISH TARTIBI

Ro'yxatga olish uchun topshirilayotgan er uchastkalariga bo'lgan huquqlarning paydo bo'lishini, ularning to'xtatilishini, berilishini, mushkullashtirilishi yoki o'zgartirilishini belgilovchi hujjatlar, qonunda ko'zda tutilgan hollarda, notarial jihatdan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Notarial jihatdan tasdiqlangan er uchastkalariga doir operatsiyalar bo'yicha hujjatlar ro'yxatga olish paytida qo'shimcha ravishda tekshirilmasligi kerak. Ana shu hujjatlar yuzasidan yuzaga keladigan nizolar sud tartibida hal etiladi.

Er uchastkalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- er uchastkalariga mulkchilik huquqi paydo bo'lganda - mulkchilik huquqiga davlat orderi, oldi-sotdi shartnomalari va qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa hujjatlar asosida;
- er uchastkalariga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqi paydo bo'lganda - erni berish to'g'risida tegishli organning (mansabdor shaxsning) qarori asosida;

- ijara huquqi paydo bo'lganda - er uchastkasini ijaraga berish to'g'risidagi qaror va ijara shartnomasi asosida;

- er uchastkalariga egalik qilish va undan foydalanish huquqi o'tkazilganda - binolar va inshootlarning oldi-sotdi shartnomasi, ularni almashtirish, hadya qilish, renta shartnomasi, meros huquqi to'g'risidagi guvohnoma yoki mulk egasining yoxud uning vakolatli organining (shaxsning) qarori asosida;

- servitutlarda - shartnoma yoki sud qarori asosida;

- mushkullashtirishda - tegishli organlarning qarorlari asosida.

Er uchastkalariga bo'lgan huquqni ro'yxatdan o'tkazish quyidagi izchillikda amalga oshiriladi:

- ariza qabul qilinadi;

- ariza va unga ilova qilingan hujjatlar va materiallar tekshirib ko'riladi;

- arizalarni qabul qilish reestrda ariza qayd etiladi;

- er uchastkasiga bo'lgan huquqlar ro'yxatga olinadi;

- er uchastkasiga bo'lgan huquqlar ro'yxatga olinganligi to'g'risidagi guvohnoma sub'ektga beriladi.

Er uchastkasiga ro'yxatga olinayotgan huquqning turiga qarab yuridik yoki jismoniy shaxsning arizasiga quyidagilar ilova qilinadi:

- huquqning paydo bo'lishi, o'tishi, cheklanishi yoki to'xtatilishini tasdiqlovchi hujjatlar (1-ilova);

- er uchastkasini baholash materiallari (tuproqlar boniteti, qiymatini baholash va h.k.);

- belgilangan tartibda tasdiqlangan er uchastkasining kadastr rejasi.

Er uchastkalariga bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish ro'yxatga oluvchi organ arizani ko'rib chiqish uchun qabul qilgan kundan boshlab o'n kun mobaynida amalga oshiriladi.

Agar taqdim etilgan materiallar etarli bo'lmasa, lekin bunday kamchilik shu qadar ahamiyatsizki, uni tezda tuzatish mumkin deb hisoblansa yoki qo'shimcha ma'lumotlar olish yoxud taqdim etilgan hujjatlarni ekspertiza qilish zarur bo'lsa, ro'yxatga oluvchi qaror chiqarishni ko'chirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab ikki haftaga orqaga surishi mumkin. Kamchiliklar tuzatilmagan taqdirda, ro'yxatga olishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi, bu haqda ariza beruvchi yozma ravishda xabardor qilinadi, pul yig'imi qaytarilmaydi.

Er uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish sabablari:

- taqdim etilgan hujjatlar arizachi aytayotganidek huquqlarning o'zgarishini belgilamaydi;

- mazkur er uchastkasining mansubligi to'g'risida nizo borligidan dalolat beruvchi hujjatlarning davlat ro'yxatga olish organida mavjudligi;

- mazkur er uchastkasi qonunda belgilangan tartibda olib qo'yilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarning davlat ro'yxatga olish organida mavjudligi;

- kamchiliklarni bartaraf etish uchun ro'yxatga olishni kechiktirish qaroridan keyin kamchiliklarning bartaraf etilmaganligi.

Hujjatlar ro'yxatga olish uchun berilgan kun va vaqtda ro'yxatga olingan deb hisoblanadi, bu haqda reestrda qayd etiladi. Huquq ustunligi ariza reestrda qayd etilgan sanalar bo'yicha belgilanadi.

Ro'yxatga oluvchi organ ro'yxatga olingan huquq to'g'risidagi hujjatni (guvohnomani) berish yoki ro'yxatga olish uchun taqdim etilgan hujjatlarda yozib qo'yish bilan ro'yxatga olinganlikni tasdiqlaydi.

1.4. Bino va inshootlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimi

Davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimi uchta asosiy qismdan iborat:

1-qism, **bino va inshootlarni ta'riflash**, ob'ektni teran va bir mazmunli identifikatsiya qilib beradi va bino va inshootlarni tekshirish dalolatnomalari hamda kadastr suratiga olishning boshqa materiallari asosida tuziladi.

2-qism, **mulk qismi**, mulkdor(lar) to'g'risidagi axborotni, uning rekvizitlarini; huquqqa ega bo'lish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hujjatlarning rekvizitlarini (yoki hujjatlar ariza raqami bo'yicha saqlanayotgan bo'lsa, ariza raqamini); bitimni ro'yxatdan o'tkazish, shartnomani tuzish sanasi va h.k.larni o'z ichiga oladi; egaliklarni tekshirish dalolatnomalari asosida tuziladi.

3-qism, **yuklovlar va ogohlantirishlar**, uchinchi shaxslarning bino va inshootlarga bo'lgan barcha huquqlari to'g'risidagi axborotni – garovlar, yuklovlar, xatga olish, ijara, servitutlarni; bino va inshootlarni tasarruf etish huquqiga ta'sir ko'rsatuvchi ogohlantirishlar, kafilliklar yoki cheklovlarni o'z ichiga oladi.

12. Ro'yxatdan o'tkazish tizimining tuzilmasiga muvofiq har bir ob'ekt uchun kadastr hujjatlari yig'majildi tuziladi, u uch qismdan iborat:

- ko'chmas mulk ob'ektining (binoning, inshootning) texnik, iqtisodiy va yuridik tavsiflari;
- ko'chmas mulk ob'ektining egasi (egalari) to'g'risidagi zarur ma'lumotlar;
- yuklovlar va ogohlantirishlar.

13. Bino va inshootlarni ro'yxatdan o'tkazishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat.

Rad etib bo'lmaslik tamoyili. Mulkiy huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimining asosiy maqsadi – egalik qiluvchining huquqini shu huquqni rad etib bo'lmaslik hisobiga himoya qilishni ta'minlashdir. Rad etib bo'lmaydigan mulkiy huquq bekor qilinishi, qoldirilishi, yuridik kuchdan maxrum etilishi mumkin emas. Bunday mulkiy huquq – uning egasi mazkur mulkka huquqi borligining dalilidir.

Ro'yxatdan o'tkazish tamoyili ikki elementni o'z ichiga oladi.

1. Reestr hujjatlarning asosiy mazmunini saqlash joyini o'zida ifodalaydi va ulardan foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

2. Mulkiy huquqning o'zga shaxslarga o'tishi hujjatlarni bir egalik qiluvchidan boshqasiga shunchaki etkazish bilan emas, balki reestrda ro'yxatdan o'tkazish orqali amalga oshirilmog'i lozim. Ro'yxatdan o'tkazilmagunga qadar bitim yuridik kuchga ega bo'lmaydi.

Xabardorlikni bekor qilish tamoyili. Agar huquq ro'yxatdan o'tkazilmagan bo'lsa, u mavjud emas. Huquq egasi faqatgina mulkiy huquqqa ta'sir ko'rsatuvchi barcha ro'yxatdan o'tkazilgan huquqlar haqida bilmog'i lozim.

Kompensatsiya tamoyili ko'chmas mulkka bo'lgan huquqidan ro'yxatdan o'tkazuvchi organning aybi bilan maxrum etilgan shaxsga bu uchun kompensatsiya olish imkoniyatini beradi.

Ro'yxatdan o'tkazish aybi bilan vujudga kelgan har qanday ziyon kompensatsiyalanmog'i lozim. Agar yuridik yoki jismoniy shaxs registrning noto'liq yoki noaniq axboroti tufayli ziyon ko'rsa, u davlat organlaridan etkazilgan ziyon uchun kompensatsiya talab qilishga haqlidir.

14. Ro'yxatdan o'tkazish tizimiga tushgan murojaatnomalarni (arizalarni) hisobga olish uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan an'anaviy yoki kompyuterli variantda arizalar reestri yuritiladi (1-son ilova). Arizalar daftarida har bir ariza bo'yicha ishlashning hozirgi lahzadagi holati to'g'risida belgilar qo'yiladi.

15. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan shuningdek ishonchnomalar maxsus reestri ham yuritiladi, u barcha joriy ishonchnomalar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga oladi. Ishonchnomaning amal qilishi muddatining o'tib ketishi munosabati bilan yoki ko'chmas mulk egasining talabiga ko'ra to'xtashi mumkin.

16. Ro'yxatdan o'tkazuvchi ro'yxatdan o'tkaziladigan ob'ekt bilan bog'liq barcha muolajalardan xabardor bo'lmog'i lozim. Bu arizani to'ldirish chog'ida bitimda ishtirok etayotgan taraflar tomonidan ta'minlanadi. Mulkiy huquq to'g'risidagi yozuv yangilanganda, arizada ta'riflangan bitim tafsilotlarini aks ettirish uchun arizaning o'zi ro'yxatdan o'tkazilganligi e'lon qilinadi. Bu jarayon ro'yxatdan o'tkazish deb ataladi.

17. Ro'yxatdan o'tkazish uch bosqichda amalga oshiriladi:

- ariza berish;

- arizani tekshirish;
- arizani ro'yxatdan o'tkazish va mulkiy huquq to'g'risida guvohnoma berish.

18. Har qanday so'rovnoma va axborotni ro'yxatdan o'tkazish yoki izlash uchun ro'yxatdan o'tkazuvchi organ standart formalarga ega bo'lmog'i lozim, ular orqa tomonidagi to'ldirish bo'yicha yo'riqnomaga qarab to'ldirish uchun teran va sodda bo'lishi lozim.

Har bir formaning muhim elementlari quyidagilardir: er uchastkasining kadastr raqami, bino, inshootning reestr raqami, taraflar (huquqdorlar), huquqning asosiy tavsifi va kutiladigan ishlar (natijalar).

Ariza formasi shunday tuzilgan bo'lishi lozimki, formaning har bir qismida ro'yxatdan o'tkazuvchi organ xonasining tayin bir joyida saqlanadigan axborot joylashsin.

Standart formaning namunaviy to'plami:

- sotuv;
- ijara va ikkilamchi ijara;
- ijaraning tugashi;
- garov;
- garovning bekor qilinishi;
- huquqdagi ulushni sotish;
- meros qilib o'tkazish;
- servitut, cheklovchi majburiyat kiritish;
- servitutdan, cheklovchi majburiyatdan ozod etish;
- ishonib topshirilgan boshqaruv;
- almashuv;
- hadya qilish;
- renta;
- mulkni umrbod asrash sharti bilan boshqaga o'tkazish;
- xatga olish;
- man etish;

- bosh ro'yxatdan o'tkazuvchiga appelyasiya qilish;
- axborot izlash bo'yicha so'rov;
- ko'chmas mulk ob'ektining o'zgarishi (mutatsiyasi);
- boshlang'ich ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza;
- yangi ob'ektni ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza.

19. Ariza ro'yxati 2-son ilovada keltirilgan zarur hujjatlar to'plami bilan birga beriladi. U ehtimoliy muammolarni aniqlash mavzuida tekshirib chiqiladi. Arizani to'ldirishda xatoliklar bor bo'lgan yoki ilova qilinadigan hujjatlar to'plami noto'liq bo'lgan holda ariza qaytariladi.

20. Ariza qabul qilingandan so'ng u ro'yxatdan o'tkaziladi, buni bajarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar haqini to'lash uchun hujjat va ariza qabul qilib olinganligi to'g'risida kvitansiya beriladi.

21. Arizani ishlash uni ro'yxatdan o'tkazishdan boshlanadi, unga qadar ko'chmas mulk to'g'risidagi joriy axborotni izlash va mazkur ob'ektga tegishli bo'lgan hamma arizalarni tekshirib chiqish ishlari o'tkazilishi lozim. Ariza shu ko'chmas mulk ob'ekti bo'yicha boshqa arizalardan (noroziliklardan) alohida ko'rib chiqilishi mumkin emas.

Arizalar ixtilofida (shu ob'ekt bo'yicha boshqa arizalar (noroziliklar) kelib tushgan holda) ro'yxatdan o'tkazish to'xtatib turiladi. Muammo manfaatdor taraflar tomonidan sud orqali yoki taraflarning kelishuviga ko'ra qonun hujjatlarida belgilangan boshqa tartibda hal etiladi.

22. Arizani ekspertiza qilish uni sinchiklab o'rganish va arizadagi axborotni reestr axboroti bilan taqqoslashdan boshlanadi. Ariza talablarini bajarish uchun to'sqinlik qiluvchi omillar aniqlanadi. Masalan, sotishda shu ob'ektning garovga qo'yilganligi, yoki ariza talablarininig bajarilishini taqiqlovchi norozilik yoki yuklovning mavjudligi to'siq bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ekspertiza shuningdek quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- arizaning haqiqiyiligini, guvohnomalarni va boshqa rasmiy hujjatlarni tekshirish;
- arizaning yuridik kuchini tasdiqlash;

- mulkdorning mavjud huquqini o'rganib chiqish;
- arizada dalil qilib keltirilgan hujjatlarni reestrda dalil qilib keltirilgan hujjatlar bilan solishtirish;
- kesishma tekshiruvlar: masalan, servitut huquqi ko'rilayotgan ob'ektda va "hukmron" ob'ekt huquqlarida ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Agar ariza talablarini bajarish uchun to'sqinlik topilsa, ariza beruvchiga yozma ravishda xabarnoma yuboriladi va vujudga kelgan muammolarni hal etish uchun vaqt beriladi. Agar muammolar belgilangan muddatda tartibga solinmasa, ariza beruvchi rad javobi oladi, pul yig'imi qaytarilmaydi.

23. Ro'yxatdan o'tkazish ariza berilgan kundan boshlab bir oy muddat ichida amalga oshiriladi, shuning uchun ro'yxatdan o'tkazish hujjatlarni topshirish sanasi va vaqtida amalga oshirilgan hisoblanadi, huquqlar ustivorligi esa reestrda ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha belgilanadi.

24. Agar ariza haqiqiy bo'lsa, tuzilgan bitimni ko'rsatish uchun reestrda yozuv yangilanadi.

25. Ba'zi hollarda arizani rasmiylashtirish chog'idayoq arizani ro'yxatdan o'tkazish uchun to'sqinlik qiluvchi yangi holatlar kiritilishi mumkin. Bu holda "arizani ro'yxatdan o'tkazishni to'xtatib turish" rejimi yuzaga keladi, uni agar ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi yozuv noto'g'riligini bilsa (topsa), operator (ro'yxatdan o'tkazuvchi) kiritishi mumkin. Bu rejim mazkur ko'chmas mulk ob'ekti to'g'risidagi axborotga kirish yo'lini axborotga yoki arizaga aniqlik kiritish davriga yopib qo'yadi. Bu rejim kiritilgunga qadar so'rovni (arizani) ishlashda axborotni standart tarzda izlash natijalarini olish zarur.

**II-BOB. "SHIRINLIK" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI
KADASTRINI TUZISH**

2.1. KO'CHMAS MULK OB'EKTIGA KADASTR ISHI

YUridik (jismoniy) shaxs: "SHIRINLIK" mas'uliyati cheklangan jamiyati

Ob'ekt joylashgan manzil: Sergeli tumani, Sputnik-7 mavzesi, CHinor ko'chasi, 2^a-uy

Ob'ekt nomi: Qandolatssexi binolari

Iqtisodiy zona: 5

Kadastr raqami: **er maydoniga:** 10:06:04:02:01:0014

bino – inshootiga: 10:06:04:02:01:0014

Er uchastkasining umumiy maydoni: 5565 m²

Ijaraga berilgan er uchastkasining maydoni: 5565 m²

Qo'shimcha ma'lumotlar _____

Binolar soni: Uchta bino **Inshootlar soni** Yo'q

Er maydoni va bino-inshootga bo'lgan xuquqni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi haqida ma'lumot

Mulk xuquqi yoki boshqa xuquqlar asosida davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lgan:

Binolar soni: Uchta bino Inshootlar soni Yo'q

Ob'ektning reestr raqami: _____

Huquqni turi **er maydoniga:** Ijara

bino – inshootiga: Mulk

Huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi guvohnoma

Er uchastkasiga 2012 yil « _____ » _____ -sonli


Bino-inshootiga 2012 yil « _____ » _____ -sonli

2.2. ER UCHASTKASI CHEGARALARINI SHAKL-TASVIRI

Manzili: Sergeli tumani, Sputnik-7 mavzesi, CHinor ko'chasi, 2^a-uy

Erdan foydalanuvchi: "SHIRINLIK" mas'uliyati cheklangan jamiyati

Maydoni: 5565 kv.m. Kadastr raqami: 10:06:04:02:01:0014



Rahbar: _____ Nazarov B.R.

Talaba: _____ Ibragimova M.

(imzo)

2.3. Er uchastkasi chegaralarini aniqlash va kelishish

DALOLATNOMASI

Erdan foydalanuchi: "SHIRINLIK" mas'uliyati cheklangan jamiyati

Manzili: Sergeli tumani, Sputnik-7 mavzesi, CHinor ko'chasi, 2^a-uy

Kadastr raqami: 10:06:04:02:01:0014

Men, Toshkent arxitektura-qurilish instituti "Geodeziya, kartografiya va kadastr" kafedrasida talabasi Ibragimova M. er uchastkasidan foydalanuvchining vakili bilan birgalikda perimetri bo'yicha umumiy uzunligi 581 m. va umumiy maydoni 5565 kv.m. bo'lgan er uchastkasining chegaralarini aniqladim.

Er uchastkasi chegaralari qo'shni er uchastkalari erdan foydalanuvchilari yoki ularning vakillari bilan kelishilgan (er uchastkasi chegaralari taxminiy chizmasi keltirilgan).

Qo'shni erdan foydalanuvchining nomi	Ismi va sharifi	imzosi

Er uchastkasi chegaralarini aniqlab belgilashga erdan foydalanuvchi va qo'shni er uchastkalari xuquq egalarning e'tirozlari yo'k.

Dalolatnoma Er resurslari va davlat kadastr boshqarmasi tomonidan 2 nusxada tayyorlanadi.

2.4. Er uchastkasi burilish nuqtalari va chegaralarining ta'rifi

Erdan foydalanuvchi: "SHIRINLIK" mas'uliyati cheklangan jamiyati

Manzili: Sergeli tumani, Sputnik-7 mavzesi, CHinor ko'chasi, 2^a-uy

Kadastr raqami: 10:06:04:02:01:0014

Nuqtalar	Geoma'lumotlar		CHegalarining ta'rifi
	uzunligi	Burchak	
n 1	3,75	150° 38' 02"	
n 2	9,23	150° 32' 51"	
n 3	52,67	241° 38' 22"	
n 4	20,25	241° 38' 17"	
n 5	3,11	241° 32' 12"	
n 6	17,00	241° 39' 21"	
n 7	59,75	241° 38' 01"	
n 8	4,81	241° 40' 30"	
n 9	8,50	241° 37' 34"	
n 10	39,13	241° 38' 02"	
n 11	34,45	331° 34' 31"	
n 12	5,12	38° 39' 35"	
n 13	47,06	62° 02' 47"	
n 14	0,72	61° 38' 42"	
n 15	33,76	330° 32' 59"	
n 16	4,73	244° 01' 52"	
n 17	11,50	331° 08' 20"	
n 18	29,47	62° 24' 32"	
n 19	1,42	150° 54' 22"	
n 20	66,57	150° 58' 56"	
n 21	2,92	84° 05' 38"	


n 22	32,21	61° 12' 54"	
n 23	17,00	61° 14' 01"	
n 24	13,00	61° 12' 24"	
n 25	10,36	61° 15' 25"	
n 26	52,48	61° 13' 04"	

Rahbar: _____ *Nazarov B.R.*

Talaba: _____ *Ibragimova M.*
(imzo)

2.5. ER UCHASTKASI JOYLASHGAN XUDUD TAFSILOTI

Sergeli tumani, Sputnik-7 mavzesi, CHinor ko'chasi, 2^a-uy



Nisbat: 1:5000

Rahbar: _____ Nazarov B.R.

Talaba: _____ Ibragimova M.

(imzo)

Bino va inshootlar
PASPORTI

**2.6. DAVLAT RO‘YXATDAN O‘TKAZISH UCHUN TAQDIM QILINGAN
XUJJATLAR RO‘YXATI**

Erdan foydalanuchi: "SHIRINLIK" mas'uliyati cheklangan jamiyati

Manzili: Sergeli tumani, Sputnik-7 mavzesi, CHinor ko'chasi, 2^a-uy

Ob'ekt turi: Kandolatssexi binolari

Binolar soni: Uchta bino **Inshootlar soni:** Yo'q

№	Xujjatlar
1	2012 yil _____dagi № <u>2-12-6-0889-12</u> sonli Er ijara shartnomasi.
2	Toshkent shaxar SHayxontoxur tumanlararo fuqarolik ishlari bo'yicha sudining 2004 yil 16-martdagi xal qiluv qarori
3	Sergeli tumani Xokimiyati TSRO'I tomonidan 2006 yil 20-oktyabrda 001013-06-reestr raqam bilan ro'yxatga olingan "SHIRINLIK" mas'uliyati cheklangan jamiyati guvoxnomasi
4	Sergeli tumani Xokimiyati TSRO'I tomonidan 2011 yil 24-iyunda 001013-06-reestr raqam bilan ro'yxatga olingan "SHIRINLIK" mas'uliyati cheklangan jamiyati ustavi

**2.7. Davlat mulki bo'lgan er uchastkasiga _____ - sonli ijara shartnoma
namunasi**

Toshkent shahri

“ _____ ” _____ 2014 y.

Toshkent shahar hokimligi, bundan buyon “Ijaraga beruvchi” nomidan amaldagi nizom va vakolatlarga asosan, harakat qiluvchi Toshkent shahar Er resurslari va davlat kadastri boshqarmasi bir tomondan va “Ijaraga oluvchi” deb nomlanuvchi **"SHIRINLIK" mas'uliyati cheklangan jamiyati** nomidan harakat qiluvchi _____ ikkinchi tomondan, quyidagilar haqida o'zaro shartnoma tuzdilar:

I. SHARTNOMA MAVZUSI.

1.1. Toshkent shahar Xokimining 1995 yil 06 yanvardagi 8-sonli qarori asosida, “Ijaraga beruvchi” maydoni **5565 (Besh ming besh yuz oltmish besh)** kv.m. bo'lgan **Sergeli tumani, Sputnik-7 mavzesi, CHinor ko'chasi, 2a-uy** manzilida joylashgan er uchastkasini **5 (besh)** yil muddatga ijaraga beradi, “Ijaraga oluvchi” ijaraga oladi.

1.2. Er uchastkasining kadastr rakami **10:06:04:02:01:0014**

Er uchastkasining iqtisodiy zonasi **5**

“Ijaraga oluvchi”ning er uchastkasi chegaralari mazkur shartnomaning tarkibiy qismi bo'lgan er tuzish kadastr yig'ma jildida keltirilgan tarxda belgilangan. Mazkur er uchastkasi chegaralari to'g'risidagi tarx - er uchastkasini topshirish – qabul qilish dalolatnomasi kuchiga ega bo'lgan hujjat xisoblanadi.

1.3. Er uchastkasi **Kandolatssexi binolari** maqsadi uchun beriladi.

II. IJARA HAQI.

2.1. Er uchun ijara haqi mahalliy byudjetga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to‘lanadi.

2.2. Ijara haqining miqdori yiliga 1 kv.m. uchun 3207,26 so‘m etib tayinlangan hamda belgilangan er solig‘ining stavka miqdoriga teng bo‘lib, yiliga 17 848 401,90 (O‘n etti million sakkiz yuz qirq sakkiz ming to‘rt yuz bir so‘m to‘qson tiyin) tashkil etadi.

Er uchastkasini “Ijaraga oluvchi”da er uchun to‘lov bo‘yicha imtiyozlar mavjud bo‘lgan taqdirda, mazkur imtiyozlarni qo‘llash O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Davlat soliq organlari tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.3. Ijara haqi o‘z vaqtida to‘lanmagan taqdirda amaldagi qonun hujjatlariga asosan er solig‘i uchun belgilangan miqdor va tartibda penya undiriladi.

2.4. Er solig‘ining stavkasi oshirilgan taqdirda, ijara haqining miqdori shunga mutanosib ravishda oshiriladi. Bunday xollarda mazkur er ijara shartnomasiga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar rasmiylashtirilmaydi.

III. ER UCHASTKASINI BERISH VA UNDA FOYDALANISH SHARTLARI

3.1. Er uchastkasi mazkur shartnomaning I-bandida ko‘rsatilgan maqsadlar uchun foydalanilishi lozim.

3.2. “Ijaraga oluvchi” er uchastkasini foydalanish uchun yaroqsiz holga keltirgan taqdirda, er uchastkasini tiklash “Ijaraga oluvchi”ning mablag‘i hisobiga amalga oshiriladi.

3.3. O‘zbekiston Respublikasi Er Kodeksining 9-moddasiga ko‘ra erlarni er fondining bir toifasidan boshqa toifasiga o‘tkazilishi, erga egalik qilish va

foydalanishga berish huquqiga ega bo'lgan vakolatli idoralar tomonidan erlarning asosiy foydalanish maqsadi o'zgartirilgan hollarda amalga oshiriladi.

IV. IJARAGA BERUVCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. "Ijaraga beruvchi" belgilangan tartibda quyidagilarga haqlidir:

- ijaraga berilgan er uchastkasiga to'siqsiz kirishga;
- avariya va boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan holda, avariya va maxsus xizmat avtotransport vositalari, texnikasi, tegishli avariya xizmatlari xodimlarining o'tishiga;
- magistral muhandislik kommunikatsiyalarini o'tkazishga (ta'mirlashga);
- erdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishga;
- shartnomaning shartlari "Ijaraga oluvchi" tomonidan buzilgan hollarda, er uchastkasini yoki uning bir qismini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi lozim bo'lgan taqdirda, mazkur shartnomani bir tarafdin o'zgartirish yoki bekor qilishga;
- er uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatda yoki er uchastkasining ajratib berilishi to'g'risidagi qarorda er uchastkasiga cheklashlar yuklatilishini belgilashga;
- er uchastkasida maxsus tekshiruv, qidiruv ishlarini amalga oshirishga va uning ta'riflangan tarxlari va toposuratlarini tuzishga;
- er resurslarining monitoringini amalga oshirishga, er uchastkasining haqiqiy holati bilan tanishishga, "Ijaraga oluvchi" va boshqa mansabdor shaxslardan er va tabiatni muhofaza qilish qonunchiligiga rioya qilish masalalari bo'yicha izohlar olishga;
- bevosita me'yoriy-huquqiy hujjat bilan belgilangan holda boshqa huquqlarga ega bo'lishga.

"Ijaraga beruvchi" quyidagilarga majburdir:

Ijaraga olingan er uchastkasini shartnomaning shartlariga mos holatda belgilangan muddatda taqdim etilishini ta'minlashga.

V. IJARAGA OLUVCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. "Ijaraga oluvchi" quyidagi huquqlarga ega:

- er uchastkasida uning maqsadiga muvofiq mustaqil xo'jalik yuritishga;
- mahalliy davlat hokimiyat organlarining qaroriga ko'ra belgilangan tartibda turar-joy, ishlab chiqarish, madaniy-maishiy hamda boshqa bino va inshootlarni qurish, er uchastkasining maqsadi va loyiha hujjatlariga muvofiq ularni qayta qurish va buzishni amalga oshirishga;
- belgilangan hollarda, unga etkazilgan zararlarni qoplab berilishiga.

"Ijaraga oluvchi" O'zbekiston Respublikasi Er kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan huquqlarga ham egadir.

5.2. "Ijaraga oluvchi" quyidagilarga majburdir:

- "Ijaraga beruvchi"ga ijaraga berilgan er bo'lagiga to'siqsiz kirishni ta'minlashga;
- ijara haqini o'z vaqtida to'lashga;
- erdan maqsadiga muvofiq oqilona foydalanishga, ishlab chiqarishda tabiatni muhofaza qilish texnologiyalarini qo'llashga, hududda o'z xo'jalik faoliyati oqibatida ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslikga;
- amaldagi irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarini, muhandislik kommunikatsiyalarini, obodonlashtirish elementlari va ko'kalamzorlashtirish ekinlarini soz holatda tutib turishga;
- qonunchilikda ko'zda tutilgan - erlarni muhofaza qilishga oid tadbirlar majmuasini amalga oshirishga;
- boshqa er egalari, erdan foydalanuvchilar va er uchastkalarining ijarachilari huquqlarini buzilmasligiga;
- qurilish va boshqa turdagi ishlarni o'tkazishda buzilgan erlarni, ulardan maqsadiga ko'ra foydalanish uchun yaroqli holga keltirishga;

- berilgan (realizatsiya qilingan) er uchastkalaridan tashqaridagi qishloq xo‘jalik va boshqa unumdor erlarga salbiy ta’sirlarning oldini olish yoki mumkin qadar maksimal cheklash tadbirlarini amalga oshirishga;
